AKADEMIK UBAYDULLA KARIMOV TAVALLUDINING 105 YILLIGI MUNOSABATI BILAN O‘TKAZILGAN XALQARO ILMIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

TO‘PLAMI



Toshkent – 2025

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI

AKADEMIK UBAYDULLA KARIMOV

TAVALLUDINING 105 YILLIGI MUNOSABATI

BILAN O‘TKAZILGAN XALQARO ILMIY

KONFERENSIYA MATERIALLARI

TO‘PLAMI

Toshkent – 2025

UO‘K 314.151(575)(08)
KBK 607(543)
Y 83

Akademik Ubaydulla Karimov tavalludining 105 yilligi munosabati bilan o‘tkazilgan xalqaro ilmiy konferensiya materiallari to‘plami. – Toshkent, 2025. – 510 bet.

Mas’ul muharrir:

Bahrom Abduhalimov – tarix fanlari doktori, professor.

Taqrizchilar:

O‘ktambek Sultonov – tarix fanlari doktori, professor.
Salima Eshonova – filologiya fanlari nomzodi, katta ilmiy xodim.

Tahrir guruhi:

Laziz To‘rayev – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),
Akbar Idiyev, Maftuna Mirzayeva, Farrux Kamoliddinov,
Doston Tojiyev, Sherzod Karimov.

Ushbu to‘plamda qadimgi davrdan bugungi kungacha bo‘lgan sharqshunoslik sohasidagi dolzarb masalalar, tarix fani oldida turgan muammolar va ularning yechimlari, tarixshunoslikka oid tadqiqotlar, til, adabiyot hamda manbashunoslik masalalari, Sharq renessansi davri allomalari ilmiy merosining o‘rganilishi, qadimiy yozma manbalarning muomalaga kiritilishi kabi masalalarga qaratilgan tadqiqotlar o‘rin olgan. To‘plam sharqshunoslar, tarixchilar, adabiyotshunoslar, tadqiqotchilar va keng kitobxonlar ommasi uchun mo‘ljallangan. To‘plam tarkibidan o‘rin olgan maqolalar mualliflarning ilmiy tadqiqot natijalari va shaxsiy ilmiy qarashlarini o‘zida aks ettiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti
direktori huzuridagi Kengashining 2025-yil 8-apreldagi 4-sonli
majlisi qarori asosida nashrga tavsiya etilgan.

© Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti.

ISBN 978-9910-9030-5-2

3. Дружиловксий С.Б., Хуторская В.В. Политика Ирана и Турции в регионе Центральной Азии и Закавказья // Иран и СНГ. Сборник научных статей. — Москва: Институт изучения Израиля и Ближнего Востока, 2003. – С. 37–72.
4. Ушаков В.А. Иран и мусульманский мир (1979–1998 гг.) – Москва, 1999.
5. Хандогин К. Эволюция концепции экспорта исламской революции в контексте внешней политики ИРИ 1990-х гг // Власть. № 11, 2011. – 167 с.
6. روح الله خمینی. صحیفه امام: مجموعه آثار امام خمینی (س): (بیانات، پیام‌ها، مصاحبه‌ها، احکام، اجازات شرعی و نامه‌ها) (نمایه‌ها) (جلد 22) . موسسه تنظیم و نشر آثار امام خمینی (ره) .1385. ص.606.
7. بهرام نوازنی. صدور انقلاب اسلامی: زمینه‌ها و پیامدهای بین‌المللی آن . (2017) . ص. 480.

Kamoliddinov Farrux Burxoniddin o‘g‘li[1]

QIRG‘IZISTON VA KO‘RFAZ ARAB DAVLATLARI: TARIXIY ALOQALAR VA ZAMONAVIY HAMKORLIKNING RIVOJLANISH MASALALARI

KYRGYZSTAN AND THE GULF ARAB STATES: ISSUES OF HISTORICAL RELATIONS AND DEVELOPMENT OF MODERN COOPERATION

Abstract. *This article analyzes the diplomatic and economic relations of the Kyrgyz Republic with the Gulf arab states. The historical relationship between Kyrgyzstan and the arab world was formed from the time of the spread of Islamic civilization to Central Asia, with these ties rising to a new level after independence. The article details the development of bilateral relations with countries such as Saudi Arabia, the United Arab Emirates, Qatar and Kuwait, Investment Cooperation, religious and humanitarian projects, and the growth of political ties.*

Keywords: *Kyrgyzstan, Gulf arab States, diplomatic relations, investment, foreign policy, economic cooperation, religious influence.*

Qirg‘iziston arab dunyosi bilan uzoq tarixiy aloqalarga ega bo‘lib, bu munosabatlar asrlar davomida shakllangan. Milodiy III asrda Markaziy Osiyo hududining bir qismi Sosoniylar imperiyasi tomonidan egallangan bo‘lib, bu yerda asosan eroniy tillarda so‘zlashuvchi so‘g‘diylar, baqtriylar, saklar va massagetlar istiqomat qilgan.

[1] O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti tayanch doktoranti.
E-mail: kamoliddinov9494@gmail.com. ORCID: 0009-0007-8423-7193

VII–VIII asrlarda arab qo‘shinlari Markaziy Osiyoni o‘z nazoratiga oldi va bu jarayon natijasida mintaqa Movarounnahr nomi bilan tanila boshladi. Arab istilolari davomida ular Turk xoqonligi bilan qarama-qarshilikka kirishgan bo‘lsa, Xitoy imperiyasi ham Markaziy Osiyodagi siyosiy ustunlik uchun raqib sifatida maydonga chiqdi. 751-yilda Talas jangida xalifalik armiyasi Tan sulolasi boshchiligidagi Xitoy qo‘shinlarini tor-mor etib, Markaziy Osiyoni Xitoy ta’siridan chiqardi va mintaqadagi arab ekspansiyasining yakuniy bosqichiga zamin yaratdi.

Arablar hukmronligining eng muhim natijalaridan biri islom dinining Markaziy Osiyo hududida keng tarqalishi bo‘ldi. Shu tariqa, 1991-yilda mustaqillikka erishgan Qirg‘izistonning arab mamlakatlari bilan diplomatik aloqalarni o‘rnatishi va rivojlantirishi uzoq yillar davom etgan tanaffusdan so‘ng tarixiy aloqalarning qayta tiklanishi sifatida baholanadi.

Qirg‘iziston arab davlatlari bilan diplomatik aloqalarni 1990-yillarning boshlarida o‘rnatgan bo‘lsa-da, ikki tomonlama hamkorlik faqat 2000-yildan keyin faollashdi. Bu jarayonning kechikishiga ta’sir etgan asosiy omillardan biri sifatida 1993-yilda Qirg‘iziston tashqi ishlar vaziri Ednan Karabayevning Quddus shahrini Isroilning poytaxti sifatida tan olish hamda Qirg‘iziston elchixonasini aynan ushbu shaharda ochish to‘g‘risidagi bayonoti ko‘rsatiladi [1]. Mazkur qaror arab davlatlari tomonidan ehtiyotkorlik bilan qabul qilingan bo‘lib, bu holat uzoq yillar davomida Qirg‘izistonning arab dunyosi bilan diplomatik munosabatlariga ma’lum darajada ta’sir ko‘rsatgan. Arab davlatlarining ushbu bayonotni Qirg‘iziston tashqi siyosatining noaniq qarori sifatida qabul qilishlari va munosabatlarni qayta ko‘rib chiqishlari qariyb 20 yil davom etdi.

So‘nggi o‘n yil ichida Qirg‘izistonning Ko‘rfaz arab davlatlari bilan hamkorligi sezilarli darajada oshdi. Rasmiy Bishkek Saudiya Arabistoni, Birlashgan Arab Amirliklari (BAA), Qatar, Kuvayt, Oman va Bahrayn kabi mamlakatlari bilan o‘zining siyosiy va iqtisodiy manfaatlarini faol ravishda mustahkamlamoqda. Nominal ravishda aytish mumkinki, ushbu mamlakatlar o‘rtasidagi aloqalarni mustahkamlashga asosan diniy birlik yordam beradi (ularning barchasi, albatta, musulmon mamlakatlari) va Ko‘rfaz arab davlatlari postsovet davlatlarini qo‘llab-quvvatlaydi, ularga xayriya va gumanitar masalalar, Islom madaniyati bilan bog‘liq rivojlanish va loyihalar uchun katta mablag‘ ajratadi [2].

Saudiya Arabistoni Podshohligi. Qirg‘iziston mustaqillikka erishganidan so‘ng, 1991-yil 30-dekabrda Saudiya Arabistoni Qirolligi uni tan olgan ilk arab davlatlaridan biri bo‘ldi. Keyinchalik, 1992-yil 19-oktabrda Jidda shahrida ikki mamlakat o‘rtasida diplomatik aloqalar o‘rnatish to‘g‘risidagi protokol imzolandi [6]. Biroq, mustaqillikning dastlabki yillarida Qirg‘iziston va Saudiya Arabistoni o‘rtasidagi diplomatik munosabatlarning rivojlanishiga

turli omillar to‘sqinlik qilgani kuzatilgan. Xususan, Qirg‘iziston mustaqilligining dastlabki yillarida mamlakatda yetarli investitsion muhit shakllanmagani asosiy muammolardan biri sifatida e’tirof etiladi. Shu bilan birga, Saudiya Arabistoni yangi mustaqillikka erishgan respublikalar taraqqiyotini qo‘llab-quvvatlash jarayonida asosan diniy sohalarga sarmoya kiritishga e’tibor qaratgan. Biroq, Markaziy Osiyoning yangi tashkil topgan davlatlari ushbu investitsiyalarni yetarli darajada qo‘llab-quvvatlamagan, bu esa ikki tomonlama hamkorlikning rivojlanishiga muayyan darajada ta’sir ko‘rsatgan.

2008-yilda Ar-Riyod shahrida Qirg‘izistonning Saudiya Arabistonidagi elchixonasi ochildi, uch yil o‘tib, Bishkekda Saudiya Arabistoni elchixonasi ish boshladi [1]. Shundan beri ikki davlat o‘rtasidagi munosabatlarda barqaror o‘sish kuzatilmoqda va turli sohalarda hamkorlik rivojlanmoqda. Munosabatlarning mustahkamlanishiga har ikki davlat rasmiylarining barcha darajalardagi o‘zaro tashriflari, hamkorlik bo‘yicha qator bitimlar va o‘zaro anglashuv memorandumlarining imzolanishi hamda mintaqaviy va xalqaro tashkilotlardagi o‘zaro qo‘llab-quvvatlash hissasini qo‘shdi.

Saudiya Arabistoni Podshohligi 2000-yillardan boshlab Markaziy Osiyo davlatlari, xususan Qirg‘iziston Respublikasining turli sohalarini rivojlantirish maqsadida imtiyozli investitsiyalar ajratishni boshlab yubordi. Jumladan, birgina tibbiyot sohasini qo‘llab-quvvatlash doirasida 2015-yilda Qizil Yarim Oy jamiyati orqali Qirg‘izistonda to‘rtta tibbiyot markazi qurildi. Ushbu muassasalar Bishkek, Issiq-Ko‘l va O‘sh viloyatlarida joylashgan bo‘lib, loyihaning umumiy qiymati taxminan 3 million AQSh dollarini tashkil etdi [2]. Shuningdek, koronavirus pandemiyasining salbiy oqibatlarini kamaytirish maqsadida Qirol Salmon nomidagi Qutqarish va gumanitar yordam markazi orqali Qirg‘izistonga 500 ming AQSh dollari miqdorida tibbiy vositalar yetkazib berildi [6]. Saudiya Arabistoni hukumati Qirg‘iziston Respublikasi bilan turli sohalarda ikki tomonlama hamkorlikni davom ettirish hamda mamlakatdagi loyihalarni grantlar va kreditlar orqali qo‘llab-quvvatlashga qiziqishini bildirmoqda.

Birlashgan Arab Amirlikari 1996-yil 20-oktabrda Qirg‘iziston va Birlashgan Arab Amirliklari o‘rtasida rasmiy diplomatik munosabatlar yo‘lga qo‘yildi[7]. Mazkur davrda Qirg‘iziston tashqi siyosatini ko‘p vektorli tamoyillar asosida shakllantirishga intilar ekan, BAA bilan hamkorlik iqtisodiy va investitsion sohalarda strategik ahamiyat kasb eta boshladi. BAA va Qirg’iziston o‘rtasidagi aloqalar asosan iqtisodiy hamkorlik, savdo-iqtisodiy bitimlar hamda madaniy va diniy sohalardagi aloqalar orqali rivojlandi. Xususan, 2007-yilda BAAning Dubay shahrida Qirg’izistonning ilk diplomatik vakolatxonasi ochilishi kelgusida ikki davlat o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qildi.

So‘nggi yillarda Qirg’iziston va BAA o‘rtasidagi iqtisodiy hamkorlik sezilarli darajada faollashdi. Xususan, BAA investitsiya loyihalari doirasida Qirg’izistonda turizm infratuzilmasi va energetika sohalarida qator loyihalarni amalga oshirdi. 2014-yilda Qirg’iziston prezidenti Almazbek Atambayevning BAAga rasmiy tashrifi davomida bir qator savdo-iqtisodiy bitimlar imzolandi [4], bu esa ikki tomonlama munosabatlarni yangi bosqichga olib chiqdi.

Bundan tashqari, BAAning «Xalifa bin Zayd Ol Nahayon» («Khalifa bin Zayed Al Nahyan») jamg’armasi Qirg’izistonda ijtimoiy infratuzilmani yaxshilash maqsadida qator loyihalarni moliyalashtirdi. Masalan, ushbu jamg’arma orqali Qirg’izistonda bir nechta maktab va shifoxonalar qurildi.

Qatar davlati. Qatar va Qirg‘iziston o‘rtasidagi do‘stona munosabatlar doirasida ikki davlat hamkorlikni qo‘llab-quvvatlab kelmoqda. Doha tomonidan ko‘rsatilgan moliyaviy yordam natijasida Bishkek shahrida 30 dan ortiq musulmon masjidlari bunyod etilgan. Dastlabki bosqichda ushbu masjidlarda qatarlik voizlar diniy faoliyat olib borgan. Shuningdek, mazkur diniy inshootlar qoshida mahalliy aholini islom asoslariga o‘rgatishga yo‘naltirilgan norasmiy ta’lim markazlari tashkil etilgan.

Ta’kidlash joizki, Bishkek va Doha o‘rtasidagi bevosita hamkorlik jarayoni amalda 2010-yildan boshlab rivojlana boshlagan bo‘lib, asosan iqtisodiy sohagaga qaratilgan turli o‘zaro manfaatli tashabbuslarni o‘z ichiga oladi. Xususan, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini eksport qilish, tog‘-kon sanoati, ayniqsa, oltin qazib olish sohasidagi hamkorlik, xalqaro havo transporti, turizm va ta’lim yo‘nalishlarida hamkorlik qilish ustuvor yo‘nalishlar qatoriga kiradi. Shu munosabat bilan, yirik investitsion loyihalarni amalga oshirish maqsadida qo‘shma Qirg‘iziston-Qatar investitsiya fondini tashkil etish bo‘yicha muzokaralar hozirgi kunga qadar davom etmoqda [7].

Shunga qaramay, ayrim tahlilchilarning fikriga ko‘ra, Qatar Qirg‘izistonda, birinchi navbatda, diniy qadriyatlarni mustahkamlash va shu orqali mintaqadagi ta’sirini kuchaytirishga qiziqishi mumkin. Rasmiy ravishda e’lon qilingan keng qamrovli loyihalar – jumladan, gidroenergetika, transport va tog‘-kon sanoati sohalaridagi tashabbuslarga qaramay, Qirg‘izistonning Qatar investitsiyalarini jalb qilish imkoniyati past darajada qolmoqda [5].

Kuvayt davlati 1991-yil 26-dekabrda Qirg‘iziston Respublikasining mustaqilligini tan oldi. Ikki mamlakat o‘rtasida diplomatik munosabatlar 1994--yil 14-dekabrda o‘rnatildi. Ikki davlat o‘rtasidagi diplomatik munosabatlar 1994-yilda imzolangan siyosiy, iqtisodiy va madaniy sohalarda hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan hujjatlar asosida shakllangan. Qirg‘iziston Respublikasi va Kuvayt davlati o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalar rivojlanishida 1996-yilda boshlangan Kuvayt Arab iqtisodiy rivojlanish jamg‘armasi bilan hamkorlik muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur jamg‘arma tomonidan o‘tgan yillar

davomida Qirg‘izistonga umumiy qiymati 15 million Kuvayt dinori (taxminan 49 million AQSh dollari) miqdoridagi to‘rtta kredit ajratilgan [3].

2013-yilda Qirg‘iziston Respublikasi elchixonasining Kuvaytda ochilishi ikki davlat munosabatlarini yangi bosqichga olib chiqdi. 2015-yilda Qirg‘iziston Respublikasi Prezidentining Kuvaytga birinchi tashrifi esa ikki tomonlama hamkorlikni yanada mustahkamlash uchun asos bo‘ldi [9]. Qirg‘iziston Respublikasi Kuvayt davlati bilan savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorlikni yanada faollashtirish, xususan, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari eksportini yo‘lga qo‘yish va mamlakatlar o‘rtasida havo aloqasini o‘rnatishdan manfaatdor.

Xulosa. Qirg‘iziston va Ko‘rfaz arab davlatlari o‘rtasidagi munosabatlar uzoq tarixiy ildizlarga ega bo‘lib, mustaqillikdan keyingi davrda qayta jonlangan. Islom dinining tarqalishi va arab madaniyatining tarixiy ta’siri tufayli bu davlatlar o‘rtasidagi aloqalar uzoq yillar davomida shakllangan. Biroq, 1990-yillar boshida Qirg‘iziston tashqi siyosatining noaniq pozitsiyasi, xususan, Isroil bilan aloqalar bo‘yicha qabul qilingan qarorlar arab davlatlari bilan munosabatlarga salbiy ta’sir ko‘rsatdi va hamkorlikning sekin rivojlanishiga sabab bo‘ldi.

So‘nggi o‘n yillikda Qirg‘izistonning Saudiya Arabistoni, BAA, Qatar, Kuvayt kabi Ko‘rfaz davlatlari bilan hamkorligi sezilarli darajada faollashdi. Bu mamlakatlar Qirg‘izistonga investitsiyalar kiritish, ijtimoiy va iqtisodiy loyihalarni moliyalashtirish hamda savdo-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish bo‘yicha tashabbuslar ilgari surmoqda. Saudiya Arabistoni va BAA infratuzilma va tibbiyot sohasida yirik loyihalarni amalga oshirgan bo‘lsa, Qatar asosan diniy-ma’rifiy yo‘nalishda faoliyat olib bormoqda. Kuvayt esa iqtisodiy rivojlanishga yo‘naltirilgan kreditlar ajratish orqali Qirg‘iziston bilan hamkorlikni kengaytirgan.

Shu bilan birga, Qirg‘iziston va Ko‘rfaz davlatlari o‘rtasidagi iqtisodiy hamkorlik hozircha to‘laqonli rivojlanmagan. Bu, asosan, Qirg‘iziston iqtisodiyotining cheklangan imkoniyatlari, investitsion muhitning sustligi hamda mintaqaviy geosiyosiy omillar bilan bog‘liq. Kelajakda Qirg‘iziston ushbu mamlakatlar bilan o‘zaro manfaatli aloqalarni yanada chuqurlashtirish uchun infratuzilma, qishloq xo‘jaligi, energetika va turizm sohalarida keng ko‘lamli loyihalarni amalga oshirishi zarur.

Umuman olganda, Qirg‘izistonning Ko‘rfaz arab davlatlari bilan hamkorligi hali to‘liq imkoniyatlarga ega bo‘lmasa-da, o‘zaro manfaatlar asosida rivojlanayotgan dinamik jarayondir. Bu hamkorlik Qirg‘iziston iqtisodiyoti va ijtimoiy infratuzilmasini rivojlantirish uchun muhim imkoniyatlar yaratadi hamda mintaqaviy integratsiya jarayonlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. М.И. Тентимишов О сотрудничестве Кыргызстана с арабскими странами Персидского Залива и работе загранучреждений Министерства Иностранных дел Кыргызской Республики, расположенных в этом регионе// *Вестник КРСУ. 2023. Том 23. № 7*
2. Ministry of Foreign Affairs of the Kyrgyz Republic. *Kyrgyzstan and UAE Relations*. – Bishkek, 2020.
3. Government of Kyrgyz Republic. *Official Visit Reports of the President to UAE*. – Bishkek, 2014.
4. Qirg‘iziston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi rasmiy veb-sayti – www.mfa.gov.kg.
5. Ko‘rfaz hamkorlik kengashi rasmiy sayti – www.gcc-sg.org.
6. Saudiya Arabistoni Podshohligi tashqi ishlar vazirligi rasmiy sayti – www.mofa.gov.sa.
7. Birlashgan Arab Amirliklari tashqi ishlar vazirligi rasmiy sayti – www.mofaic.gov.ae.
8. Qatar investitsiya jamg‘armasi – www.qia.qa.
9. Kuvayt Arab iqtisodiy rivojlanish jamg‘armasi rasmiy sayti – www.kuwait-fund.org.

Nurumbetova Sanobar Rozimboy qizi[1]

AFG‘ONISTONDA ISLOMIY YO‘NALISHDAGI ILK SIYOSIY TASHKILOT «MUSULMON YOSHLARI»NING VUJUDGA KELISH TARIXI

THE HISTORY OF THE FORMATION OF THE FIRST ISLAMIC POLITICAL ORGANIZATION IN AFGHANISTAN, «MUSLIM YOUTH»

Abstarct: *This article aims to study and analyze the history of the formation of political circles and parties that emerged in the second half of the 20th century with the views of restoring Islam and establishing an Islamic state in Afghanistan, which is under the constant attention of the international community and the countries of the region, and which cannot achieve peaceful governance due to its different views in its internal political processes. The author focuses on the factors that led to the formation and development of such circles and parties with political views based on Islam in his research.*

[1] O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti tayanch doktoranti.
E-mail: nurumbetovasanobar@gmail.com. ORCID: 0009-0000-8260-4024

M U N D A R I J A

SO‘ZBOSHI 3

TARIXSHUNOSLIK VA MANBASHUNOSLIK

Allayeva N.A. *Bobojon Safarovning «Xorazm xonliklariga tegishli tarixiy materiallar» asari borasida* 5
Пуговкина О. *Дневники О.Н. Маллицкой: об эпохе и судьбе русской интеллигенции* 9
Mehti-zade S.Ç. *Azerbaycan’ın ortaçağ kentleri Evliya Çelebi’nin «seyahatname»sinde* 16
Aminov H.A. *Ismoil Gaspiralining «Turkiston lamosi» asari haqida.* 22
Muhammadaminov S.M. *Movarounnahrda mug‘ullar davriga oid qozilik ishlarini yuritishga doir ikki asarning qo‘lyozmalari xususida* 29
Lutfillayev H.M. *Temuriylar davri tafsirlarida moturidiylik ta’limoti* 35
Abdupattayev M.M. *Ibn Xaldunning «Muqaddima» asarida yahudiylik va xristianlik dini rohiblari funksiyalarining yoritilishi* 39
To‘rayev L.A., Nizomova N.Q. *Mahmud Zamaxshariy «Rabi’ al-abror» asarining Yevropadagi qo‘lyozmalari tavsifi.* 42
Jaynarov O.H. *O‘zbekiston Milliy arxivining R-904 fondi advokatura tizimida o‘tkazilgan «tozalash» siyosatini yoritish manbasi sifatida.* 50
Musametov B.E. *Ibn Sinoning «Yurak dorilari» nomli risolasining 12-fasli haqida* 55
Abdurazzoqova-Abduraxmonova Y.M. *«Fotuhati shohiy» asari XVI asr Markaziy Osiyodagi siyosiy jarayonlarni o‘rganishda muhim manba sifatida.* 61
Faromarzi F., Vohidova M. *Esdaliklar tarixiy manba sifatida (Mirzo Rahimbekning «Esdaliklar» asari misolida).* 66
Fayzullayev F.E. *Fazlulloh Ibn Ruzbehonning «Suluk al-muluk» asarining tadqiqi va tasnifi* 76
Kuranbayeva U. *Bir jumlada ikki asr tarixi bayoni.* 81
Mamadjanov A.A. *«Tuhfat al-xoniy» Mang‘itlar davri etnik hayotiga oid muhim manba* 85
Murodova R.D. *O‘zbekiston muzeylarida restavratsiya laboratoriyalarining tashkil topishi* 91
Nasirillayeva N.F. *Abdulla Nosirov yozma merosi va uning tasnifi* 97
Ostonov J.D. *Markaziy Osiyoning islomlashuviga bag‘ishlangan fransuz tilidagi ba’zi tadqiqotlar* 105
Xidirova G.R. *«Tarixi Rashidiy» asarida gidronimlar tavsifi* 112
Хуснутдинов Ф.Р. *Утерянный автограф зачётного сочинения А.Э. Шмидта о четверостишиях Хафиза* 117
Чориев Ш.Х. *Источнико-архивоведческий анализ банковского дела Туркестанского генерал-губернаторства* 121
Saparov S.X. *O‘zbekistonlik olimlarning kidariylar bo‘yicha tadqiqotlari.* 129

Ishiyama M. *The articles of Zarif Bashiri in The Turkistan Communist Party Newspaper «Turkiston»*. 134
Идиев А. *Китобат ул-атфол: Вклад Махмудходжи Бехбуди в развитие образования в Туркестане* 143

MARKAZIY OSIYO TARIXI

Sultonov O‘.A. *Turkiston xonliklari saroy devonxonasi shakllanishi masalasiga doir*. 149
Rahimov K.R. *O‘rta asr Buxoro kutubxonalari tarixidan*. 157
Jamolova D.M. *Hoji Muin publitsistikasida Turkiston tarixi masalalari*. 162
Azizpour Sh. *Persian-Central Asian artistic encounters on The Silk Road: Bandian & Panjikent in visual dialogue* 169
Axmatov A. *Buxoro jadid adabiyoti vakillarining 1917–1920-yillardagi taqdiri*. . 178
Djumaniyazova F. *Ilk «Turkon» Xotun – Xunak Xotun yoki Qabaj Xotun, Xunakxudot – Buxoroning ilk o‘rta asr turkiy hukmdorlari*. 182
Ismoilov Sh.Z. *X–XI asrlarda Xorazm aholisining etnik va diniy tarkibi (manbalar tahlili asosida)*. 189
Misa H.R. *O‘rta asrlardagi Markaziy Osiyo tarixshunosligi va manbashunosligi bo‘yicha yangi tadqiqotlar: savdo aloqalari va iqlimshunoslik misolida*. 195
Karimov Sh.Sh. *Qo‘shvazirlik – Temuriylar davlat boshqaruvidagi o‘ziga xos tizim*. 200
Адилов Дж. *Герб Туркестанского генерал-губернаторства: история создания и его семантика*. 206
Aslonova A.A. *Buxoro adıblarınıng pedagogık faolıyati*. 213
Ermatova M.A. *Amudaryo bo‘limining mahalliy sud tizimida ayollarning o‘rni* 217
Hamrayev S. *Enazar elchi madrasasini Yekaterina II qurdirganmi?* 222
Jumaeva N.A. *From the history of the farming culture in Lower Zarafshan oasis (during late XIXS and early 20s)*. 228
Nosirov Sh.O‘. *Buxoro amirligidagi aprel voqealarida Mahmudxo‘ja Behbudiyning ishtiroki* 237
Quvvataliyev U.B. *Bo‘lat Soliyevning «O‘rta Osiyo tarixi» asari haqida* 241
Suvonkulov M. *Jizzax vohasi «turk» guruhining moddiy madaniyati (kiyim-kechak va uni tayyorlash asboblari misolida)* 246
Toshtemirova Sh.Sh. *Avestoda ayollar: muqaddas obraz, ijtimoiy mavqe va unutilgan tenglik* 253
G‘oyibnazarova M.O‘. *Mahmudxo‘ja Behbudiy: urf-odat va an’analar haqida*. 259
To‘rayeva G.B. *O.A. Suxareva tadqiqotlarida Buxoro shahrida suv ta’minoti, hovuzlar va bog‘lar joylashuvi haqidagi ilmiy-tarixiy mulohazalar* 264

ISLOMSHUNOSLIK

Usmanov I.S. *Hanafiy mazhabida shar'iy hiylalar*. 272
Ismatova N.A. *Buxoro amirligida pul vaqflaridan foydalanish amaliyoti (XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlari)* 280
Мирджалалова Э.Р., Шарипова Г.У. *Проблема понимания и внедрения термина «Арабо-мусульманская культура» в исторических и исламоведческих дисциплинах* 284
Jumaniyozov M.D. *«Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb» asarida Qur'oni karim oyatlari va hadislar tahlili*. 291
Jo'rayev M.X. *Islom ilmlari tarixida hadis ta'limi*. 304
Mirzayev N.M. *Homidxo'ja Buxoriyning ilmiy merosi xususida*. 310
Dadamirzaev M.O. *Mavlono Sobitxonto'ra Namangoniy – Farg'ona fiqh maktabi vakili*. 315
Salimova D.A. *«Al-Isloh» jurnalida bank muomalasiga oid masalalar muhokamasi*. 320
Samsakova H. *Naqshbandiya-mujaddidiyaning Toshkent tarmog'i: Abdulmajidxon Eshon silsilasi*. 326
Sayfullaev M.S. *«Al-Izoh» jurnalining Turkiston matbuotidagi o'rni*. 330
Yunusova S.O. *«Al-Isloh» jurnalida «kiyim va qiyofat» mavzusi muhokamasi* . . 334
Hamdamova Sh.V. *Shayx Kamoliddin Husayn Xorazmiy – kubraviya tariqatining yetuk namoyondasi*. 341

XORIJIY SHARQ MAMLAKATLARI TARIXI

Karimov B.R. *O'rtaturk tili va o'rtabitik yozuv tizimining turkiy tamaddun tillari rivojidagi o'rni* 347
Yanar C. *Türk dünyasi dokuma mirasinda samsun yöresi dokumalardan bazi nakişlar (elibelinde, koçboynuzu, sandık, çakmak, çapraz)*. 353
Пилипчук В.Я. *К истории басмыльской государственности*. 363
Memmedova M.N. *Azerbaycan ve özbek halk kültüründe doğum ritüelleri* 365
Özkurt K. *From context to text: The foundation inscriptions of the tombs of the two enemy brothers Amir Timur and Yildirim Bayezid* 378
Тохтиев Ш.Р. *Социальная реклама и тематические особенности рекламного текста социальной направленности в Иране* 391
Xodjimuratova D.S. *Eron tarixida islom inqilobini eksport qilish tajribasi va uning oqibatlari*. 398
Kamoliddinov F.B. *Qirg'iziston va Ko'rfaz arab davlatlari: tarixiy aloqalar va zamonaviy hamkorlikning rivojlanish masalalari* 404
Nurumbetova S.R. *Afg'onistonda islomiy yo'nalishdagi ilk siyosiy tashkilot «Musulmon yoshlari»ning vujudga kelish tarixi* 409
Tojiev D.B. *Consultative meeting of Central Asian state leaders: historical context and future prospects* 413

Xamdamov E.I. *Ziyo Go‘kalp qarashlarida ixtiyoriy hayotni tushunish* 421
Xomidov D.I. *Jamoliddin Afg‘oniy diniy-falsafiy qarashlarining Nosirxon To‘raga ta’siri* 428
Yuldashov Sh.A. *XX asrning birinchi yarmidagi Sharqiy Turkiston madaniy hayoti* 432
Шаймергенова Г.А., Байдаров Е.У. *Перспективы развития ШОС в контексте Казахстанско-Китайского стратегического партнерства* 437

FILOLOGIYA

To‘xliyev B., Qurbanboyeva Z. *Ayyub – o‘zbek adabiyoti tarixidagi yangi nom* 443
Eshonova S.N. *Devonlar yig‘ma matni: talqin va yondashuvlar* 450
Kasımova S.A. *Masallarda karaçuha imgesinin epik-mifoloji anlam özellikleri* . . .455
Madaliyeva O.R. *Alisher Navoiy «Badoyi’ ul-bidoya»si qo‘lyozmalari: alif harfiga qofiyalanuvchi g‘azallarning matn tafovutlari* 462
Mehman A.H. *The creation of the Turkic peoples’ novel in the context of world literature.* 481
Rahmatova G.O. *«Devonu lug‘ati-t-turk»da keltirilgan she’rlarni tadqiq etish usullari.* 487
Sulaymonova H.M. *«Rasailu-l-Xavarazmiy» asari arab epistolyar adabiyoti namunasi sifatida* 493
Mahmadrajabov F.D. *Badri Chochiy devonining O‘zbekiston va Erondagi qo‘lyozmalari* 499

AKADEMIK UBAYDULLA KARIMOV

TAVALLUDINING 105 YILLIGI MUNOSABATI

BILAN O‘TKAZILGAN XALQARO ILMIY

KONFERENSIYA MATERIALLARI

TO‘PLAMI

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti
direktori huzuridagi Kengashining 2025-yil 8-apreldagi 4-sonli
majlisi qarori asosida nashrga tavsiya etilgan.

Manzil: Toshkent shahri Mirzo Ulug‘bek tumani Mirzo Ulug‘bek ko‘chasi 79.
Telefon: +998 71 262 54 61.
Faks: +998 71 262 52 77.
E-mail: berun1@academy.uz

